

PUBLISISTIK USLUB (GAZETA TILI)NING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Dilshod Rasulov Xudoyor o'g'li

Annotatsiya. Bu maqolada publisistik uslub (gazeta tili)ning lingvistik xususiyatlari haqida darslik, qo'llanmalarda talqin etilishi manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: uslub, publisistik uslub, korrespondensiya, lavha, ocherk.

O'zbek tilshunosligida publisistik uslub T.Qurbanov tomonidan maxsus o'rGANildi¹. Bu uslub OAV, xususan, gazeta, jurnal, radio, televide niye material-lari uslubidir. Tilshunoslik va jurnalistikada "publisistika janrlari", "gazeta janrlari" terminlari hozirgi vaqtida kam ishlatilmoqda. Adabiyotshunoslilikda ham "publisistika janrlari" terminining qo'llanishi mustahkam o'rnini egallagan. Lekin o'zbek tilshunosligida "gazeta janrlari" termini hozirgacha o'zining aniq ifodasini, obyektini topgan emas, u "publisistika janrlari" termini bilan birga parallel qo'llanmoqda. Yana bir muammo shundaki, gazeta materiallari janrlar bo'yicha aniq o'z tasnifiga ega emas. O'zbek tilshunosligi va jurnalistikasidagi mavjud adabiyotlarda ular turlicha miqdorda umumiy tarzda sanaladi, xolos. Gazeta materiallarini janrlar bo'yicha guruhlarga ajratish e'tibordan hamon chetda qolib kelmoqda. Rus tilshunosligida gazeta materiallari janrlari bo'yicha aniq tasnifiga ega². O'zbek vaqtli matbuotida ham XX asr boshidan janrlar yuzaga keldi. Vaqtli matbuot rivojlanishi bilan janrlarning o'ziga xos xususiyatlari, farqli tomonlari, yangi turlari paydo bo'ldi va taraqqiy etdi. Janrlar haqida fikr yuritilganda, o'zbek tilshunosligida "publisistik janr" deyiladimi yoki "gazeta janri"mi, bundan qat'iy nazar, ularning miqdori, to'liq turlari haqida aniq tasnif yo'qligi bu sohadagi ishni ancha murakkablashtirdi.

T.Qurbanov tadqiqotlarida publisistik uslub janrlari ajratib ko'rsatilgan. U publisistik uslubning quyidagi janrlarini qayd etgan: xabar, reportaj, korrespondensiya, maqola, siyosiy maqola, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy xarakterdagi maqola,

¹ Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 22 с.

² Гребенина А.М. Обзор печати: Некоторые проблемы теории жанра. - М., 1980; Блажов Е.А. Газетные жанры в экономической пропаганде. - М., 1974; Пельт В.Д. Диф-ференциация газетных жанров. - М., 1984; Информационные жанры газетной публицистики: Хрестоматия. - М., 1986; Аналитические жанры газеты: Хрестоматия., -М., 1989; Проблемы газетных жанров: Сб.статьй. - Л.: ЛГУ, 1962; Вакуров В.Н., Кохтев Н.Н., Солганик Г.Я. Стилистика газетных жанров.- М.,1978; Стилистика газетных жанров. - М.: МГУ. 1981; Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды: Сб. статей.- М.: МГУ, 1980; Кройчик Л. Современный газетный фельетон. - Воронеж,1975 ва бошқалар.



ocherk, felyeton, pamflet, lavha, partiya va hukumatning direktiva va qarorlari, axborot, turli sharhlar, taqriz, ijtimoiy-siyosiy esse, ochiq xat, xalqaro xabar, chaqiriq⁴.

S.Muhamedov gazeta publisistikasi tarmog'i - gazeta publisistikasi janri sifatida quyidagilarni ko'rsatgan: reportaj, hisobot, intervyu, korrespondensiya, maqola, sharh, obzor, taqriz, matbuot obzori, ocherk, felyeton, pamflet, lavha.

O'zbek badiiy publisistikasining xususiyatlari to'g'risida qator tadqiqotlar yaratgan O.Tog'ayev xat, ocherk, felyetonni badiiy publisistika janrlari sifatida baholagan edi. U o'z tasnifida badiiy publisistik janrlar (xat, ocherk, felyeton) bilan birga ijtimoiy-analitik yoki informatsion-analitik (korres-pondensiya, maqola, reportaj) publisistika janrlarini ajratib ko'rsatadi. Olimning janrlarni alohida belgilariga qarab guruhlarga bo'lishi, ayniqsa, e'tiborga molikdir⁵.

Felyeton janrining tarixi, uning o'zbek matbuotida shakllanishi, taraqqiyoti haqida maxsus fikr yuritilgan tadqiqotda, u "matbuot janri", "satirik janr", "satirik-publisistika janri" terminlari ostida baholangan. O'rni bilan "adabiy va badiiy publisistika janrlari" termini ham qo'llanilgan. "Matbuot janrlari" sifatida informasion janrlar, korrespondensiya, oddiy tanqidiy maqola, bosh maqola, umum-siyosiy nazariy maqola, reportaj kabilar ham ajratib ko'rsatilgan. Tadqiqotchi turli terminlarni qorishiq (aralash) holda qo'llagan bo'lsa-da, felyeton janri-ning xususiyatlarini, asosan, matbuot janri sifatida, gazeta va jurnal-lar materiallari asosida yoritib bergen. Bu esa, matbuot janri, xususan, gazeta janri haqida alohida, badiiy publisistikadan farqli tarzda, mulohaza yuritish mumkinligini ham ko'rsatadi⁶.

A.Boboyeva "gazeta janrlari" mavjudligini tan olgan holda, axborot janrini ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, olimaning felyeton va ocherkka nisbatan ishlatgan terminlari ham ("ijtimoiy-publisistik", "badiiy-publisistik") diqqatni tortadi⁷.

Keyingi paytlarda o'zbek tilshunosligida "gazeta tili", "gazeta uslubi", "gazeta janrlari" tushunchalari tobora mustahkam o'rin egallamoqda. I.Toshaliyev "gazeta janrlarining tasniflanishi va guruhlanishi"ni quyidagicha belgilaydi: "Axborot(informasion) janrlari. Tahliliy (analitik) janrlar. Tasviriy (badiiy-publisistik) janrlar". U xabar, hisobot, suhbat, reportaj, lavha (axborot (informatsion) janrlar), korrespondensiya, maqola, publisistika, xat, xalqaro obzor, matbuot obzori,

⁴ Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Номзодлик диссертацияси, 1987, 52-56-б.

⁵ Тоғаев О. Публицистика жанрлари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976, 3-6-б.

⁶ Сайдов О. Сатира тили билан. - Тошкент, 1978, 4-, 32-б.

⁷ Бобоева А. Газета тили ҳақида. - Тошкент: Фан, 1983, 20-б.



taqriz (tahliliy (analitik) janrlar), ocherk, felyeton, pamflet (badiiy-publisistik janrlar) kabilarni o'z tasnifida qayd etgan⁸.

G.G'afurov "publisistik janrlari" va "jurnalistik janrlar" terminlarining ma'nodosh ekanligini qayd etib, janrlarni quyidagicha tasnif qiladi: "1) Axborot janrlari: xabar, suhbat, intervyu, hisobot, reportaj. 2) Axborot-tahliliy janrlar: korrespondensiya, maqola, taqriz, sharh, kuzatish, xat, matbuot sharhi. 3) Badiiy-publisistik janrlar: ocherk, felyeton, satirik janrlar, esse, lavha"⁹.

Matbuot, jumladan, gazetaning xarakterli xususiyatidan kelib chiqqanda, uning asosiy vazifasi informasiya (axborot) berish va badiiy-publisistik vositalar orqali obrazli tarzda ta'sir etish hamda boshqalardan iborat. Tadqiqotchilar matbuotning vazifasi va ifoda usullari hamda shakllaridan kelib chiqib, janrlar haqida gapirganda, "informasion" yoki "axborot" janrlari, "badiiy-publisistik janr", "analitik janr" terminlarini ishlatganlar.

A.Abdusaidov tadqiqotlarida gazeta tili quyidagicha tasnif asosida o'r ganilgan: 1. Axborot (informasion) janrlari: 1. **Xabar**: xronika-xabar, axborot-xabar, tanqidiy yoki satirik xabar, maxsus sarlavhalar ostidagi qisqa xabarlar, kengaytirilgan xabarlar. 2. **Reportaj**: shu kungi voqealar haqidagi reportaj, mavzuli reportaj, muammoli reportaj. 3. **Hisobot**: oddiy hisobot, tahliliy hisobot, mavzuli hisobot, muammoli hisobot, ilmiy hisobot, sud hisoboti, rasmiy voqealar haqidagi hisobot. **Intervyu**: intervyu-monolog, intervyu-dialog, intervyu-lavha, portret-intervyu, davra-suhbat, matbuot konferensiyasi (2-jadval). 2. Tahliliy (analitik) janrlar: 1. **Korrespondensiya**: axborot korrespondensiya, tahliliy korrespondensiya, muammoli korres-pondensiya, ijobiy korrespondensiya, tanqidiy korrespondensiya, portret korrespondensiya, mulohaza-korrespondensiya. 2. **Maqola**: bosh maqola, nazariy maqola, muammoli maqola, tanqidiy maqola, tashviqot xarakterdagи maqola, ilmiy-ma'rifiy maqola. 3. **Taqriz**. 4. **Sharh**: umumiyl sharh, mavzuli sharh, axborot sharhi, matbuot sharhi. 5. **Obzor**: mavzuli obzor, umumiyl obzor, axborot obzor. 6. **Xat**: gazetxon xati, ochiq xat, murojaat, tabrik, yozuvchi xati. 7. **Kuzatish**: umumiyl kuzatish, mavzuli kuzatish (3-jadval). 3. Badiiy-publisistik janrlar: 1. **Lavha**. 2. **Ocherk**: ocherk-portret, safarnoma (yo'l ocherki), muammo-ocherk, ocherk-lavha. 3. **Felyeton**: hujjatli felyeton (4-jadval). Publisistik uslubga amal qilinadigan manbalar orasida, ayniqsa, matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarning alohida o'rni bor. O'zbek tilshunosligida gazeta tilini tadqiq etish bo'yicha qator tadqiqotlar yaratilgan. A.Abdusaidovning «Jurnalist-ning tildan

⁸ Газета жанрлари услубияти: Махсус курс дастури// Ўша дастур, 100-101-6.

⁹ Журналистик ижод назарияси ва амалиёти(жанрлар): Курс дастури// Ўша дастур, 142-6.



foydalinish mahorati» nomli monografiyasida gazeta tilini o'rganishga doir adabiyotlar obzori keltirilgan¹⁰. Unda ko'rsatilishicha, o'zbek tilshunosligida gazeta leksikasi, vaqtli matbuotda baynalmilal so'z va terminlar qo'llash, «Mushtum» jurnali leksikasi va frazeologiyasining semantik-stistik xususiyatlari, gazeta nutqi, gazeta sarlavhalari, gazeta materiallari asosida leksik dubletlar, leksik va sintaktik variantlar, gazeta tili statistikasi, gazeta tilining publisistik uslubdagi o'rni, janrlari, gazeta tili gram-matikasi, «Turkiston viloyatining gazeti»ning ayrim sintaktik xususiyatlari, XX asrning birinchi yarmi vaqtli matbuoti materiallaridan olingan boy faktlar asosida qadimgi turkiy so'zlar, o'zlashgan leksik qatlam, polisemiya, kalka masalasi, gazeta tili va adabiy me'yor masalalari o'rganilgan muhim tadqiqotlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlili keltirilgan manbalarda gazeta tilining o'tgan asrlardagi tahlili va talqni namoyon bo'ladi. Ammo XXI asr ijtimoiy tarmoqlarning eng rivojlangan davri ekanligini hisobga olsak, XXI asr gazeta tilini maxsus tadqiq qilish davr talabi hamda tilshunoslikning vazifasi bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. Дис. Канд. Филол. Наук. Ташкент – 1987. - 22 с.
2. Гребенина А.М. Обзор печати: Некоторые проблемы теории жанра. - М., 1980.
3. Кройчик Л. Современный газетный фельетон. Воронеж – 1975.
4. Тоғаев О. Публицистика жанрлари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1976, 3-6-б
5. Сайдов О. Сатира тили билан. Тошкент – 1978.
6. Бобоева А. Газета тили ҳақида. Тошкент: Фан, 1983.
7. Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати. Самарқанд – 2004.

¹⁰ Абдусаидов А. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати.– Самарқанд, 2004, 5-20-б.

